

ELEKTRON HUKUMAT TIZIMI: ZAMONAVIY BOSHQARUVNING ASOSI

СИСТЕМА ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА: ОСНОВА
СОВРЕМЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

E-GOVERNMENT SYSTEM: THE BASIS OF MODERN GOVERNANCE

Mirzaakbarov Dilshodbek Dovlatboyevich*Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari**kafedrası o'qituvchisi*mdilshodbek@mail.ru<https://orcid.org/0000-0002-5146-0467>**Odilova Dilbaroy Husanboy qizi***Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti**1-bosqich 24.108-guruh talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada elektron hukumat tizimining asosiy tushunchalari va uning turli mamlakatlardagi qo'llanilishiga oid muhim jihatlar yoritilgan. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimiga ham o'zgarishlarni olib keldi, natijada an'anaviy byurokratik tizimlar o'rniga raqamli boshqaruv modellarini ishlab chiqish boshlangan. Elektron hukumat — bu davlat va fuqarolar o'rtasidagi samarali, tezkor va shaffof muloqot o'rnatish, davlat organlari o'rtasida axborot almashish va elektron xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan tizimdir.

Maqolada elektron hukumat tizimining G2C (fuqarolar bilan ishlash), G2B (biznes subyektlari bilan muloqot), G2G (davlat organlari o'rtasidagi aloqalar) va G2E (davlat xizmatchilari bilan aloqalar) kabi asosiy tarkibiy qismlari keltirilgan. Shuningdek, O'zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanishi, Yagona davlat interaktiv xizmatlari portali va boshqa huquqiy asoslar ham muhokama qilinadi.

Аннотация. В данной статье раскрываются ключевые понятия системы электронного правительства и особенности её применения в различных странах. Развитие информационно-коммуникационных технологий в XXI веке внесло существенные изменения в систему государственного управления, способствуя переходу от традиционных бюрократических моделей к цифровым формам управления. Электронное правительство представляет собой комплекс мер, направленных на установление эффективного, оперативного и прозрачного взаимодействия между государством и гражданами, а также цифровизацию процессов обмена информацией между государственными органами и предоставления государственных услуг. В статье подробно рассмотрены

основные компоненты электронной системы: G2C (взаимодействие с гражданами), G2B (взаимодействие с бизнесом), G2G (взаимодействие между государственными органами) и G2E (взаимодействие с государственными служащими). Также освещены процессы развития электронного правительства в Узбекистане, включая создание Единого портала интерактивных государственных услуг и нормативно-правовую базу.

Annotation. This article highlights the key concepts of the electronic government system and its essential aspects in various countries. In the 21st century, the development of information and communication technologies has brought significant changes to public administration, leading to a transition from traditional bureaucratic systems to digital governance models. E-government is a system aimed at establishing effective, prompt, and transparent communication between the state and its citizens, facilitating information exchange among government agencies, and delivering electronic services. The article explores the core components of the e-government system, such as G2C (Government to Citizen), G2B (Government to Business), G2G (Government to Government), and G2E (Government to Employee). It also discusses the development of the e-government system in Uzbekistan, including the Unified Portal of Interactive Government Services and other legal frameworks.

Kalit soʻzlar: elektron hukumat, raqamli boshqaruv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, davlat xizmatlari, interaktiv portal, G2C, G2B, G2G, G2E, huquqiy asoslar.

Ключевые слова: электронное правительство, цифровое управление, информационно-коммуникационные технологии, государственные услуги, интерактивный портал, G2C, G2B, G2G, G2E, правовая база.

Key words: e-government, digital governance, information and communication technologies, public services, interactive portal, G2C, G2B, G2G, G2E, legal framework

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi tizimi ham bu oʻzgarishlardan chetda qolmayapti. Anʼanaviy byurokratik uslublar oʻrnini asta-sekin raqamli boshqaruv egallab bormoqda. Bu esa davlat va fuqarolar oʻrtasidagi muloqotni yanada samarali, tezkor va ochiq-oydin shaklga keltirish imkonini bermoqda. Shu munosabat bilan, koʻplab mamlakatlar oʻz davlat boshqaruvi tizimida elektron hukumat deb ataluvchi ilgʻor modelni joriy qilmoqda.

Elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash yoʻli bilan davlat xizmatlari koʻrsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni taʼminlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQSh va Angliya hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Katar, BAA va hokazo) shug'ullandilar.

Elektron hukumatning asosiy tarkibiy qismlari:

1. G2C (Government to Citizen) – Fuqarolar bilan ishlash tizimi

Bu yo'nalish elektron hukumatning eng asosiy va ko'p uchraydigan turi hisoblanadi. U fuqarolar va davlat o'rtasida raqamli xizmatlar orqali bevosita muloqotni tashkil etadi. Misollar: Onlayn pasport olish uchun ariza topshirish

Tug'ilganlik, nikoh, ajrim to'g'risidagi guvohnomalarni elektron shaklda olish;

Soliq to'lovlarini ko'rish va to'lash

Subsidiya yoki ijtimoiy yordam olish uchun onlayn murojaat

Kommunal to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish

Bu xizmatlar orqali fuqarolar davlat idorasiga borib navbat kutish o'rniga, internet orqali barcha jarayonni mustaqil bajara oladi. Bu shaffoflikni oshiradi va byurokратиyani kamaytiradi.

2. G2B (Government to Business) – Biznes subyektlari bilan muloqot

G2B yo'nalishi davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi raqamli aloqani tashkil qiladi. Uning asosiy maqsadi — biznesni yuritish jarayonida davlat xizmatlariga tezkor va ochiq kirishni ta'minlash.

Misollar:

Litsenziya va ruxsatnomalarni onlayn olish;

Bojxona hujjatlarini raqamli tarzda topshirish;

Davlat xaridlarida (tenderlarda) ishtirok etish;

Soliq va statistik hisobotlarni elektron shaklda topshirish;

Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish;

Bu xizmatlar tadbirkorlar uchun qulaylik yaratadi, vaqt va xarajatlarni kamaytiradi, shuningdek, iqtisodiy muhitni yanada soddalashtiradi.

3. G2G (Government to Government) – Davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvi.

G2G yo'nalishi davlat idoralari o'rtasidagi ichki aloqani raqamlashtirishga xizmat qiladi. Bunda turli vazirlik, qo'mita va tashkilotlar o'zaro axborot almashadi, hujjatlarni raqamli tarzda yuboradi.

Misollar:

Sud, prokuratura va ichki ishlar organlari o'rtasidagi elektron ma'lumot almashuvi;

FHDYo organlari va statistika idoralari o'rtasida elektron ro'yxatga olish;

Soliq qo'mitasi bilan bojxona qo'mitasi o'rtasidagi real vaqtli axborot integratsiyasi;

E-hujjat almashinuvi (ERP tizimlari).

Bu yo‘nalish orqali davlat tizimi ichidagi ish samaradorligi oshadi, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar kamayadi.

4. G2E (Government to Employee) – Davlat xizmatchilari bilan bog‘liq tizimlar.

G2E yo‘nalishi davlat tashkilotlarining o‘z xodimlariga nisbatan raqamli xizmat ko‘rsatishiga qaratilgan. Bu xodimlar faoliyatini nazorat qilish, ma‘lumotlarni yuritish va o‘zaro aloqa uchun qulayliklar yaratadi.

Misollar:

Davlat xizmatchilarining ish haqi va mukofotlari bo‘yicha elektron hujjat aylanishi;

Onlayn mehnat daftarchasi va xizmat safarlari bo‘yicha buyruqlar;

Xodimlarning malaka oshirish yoki attestatsiyadan o‘tish jarayonlarini raqamlashtirish;

Xodimlarning shaxsiy fayllarini (CV, baholash, shikoyatlar) elektron yuritish.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlat boshqaruvini demoklashtirish va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular qatorida “Elektron hukumat” tizimini yaratishga alohida e‘tibor berildi. Xususan, aholining interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun 2013-yil 1-iyulda Yagona davlat interaktiv xizmatlari portali (www.my.gov.uz) ishga tushirildi, 2015-yil 17-martdan esa O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma‘lumotlar portali (data.gov.uz) foydalanishga topshirildi. Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida Qonun hujjatlari ta‘sirini baholash tizimini alohida portal ko‘rinishida ishga tushirish edi, mazkur tizim

2015-yil 1-yanvardan ishga tushgan bo‘lib dastlab Yagona davlat interaktiv xizmatlari portalining alohida bo‘limida aholi e‘tiboriga havola etildi.

O‘zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlarning muhokamasi portali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 328-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, Qonun hujjatlari ta‘sirini baholash tizimining birinchi talqinidir.

Portalning maqsadi: muammoni, uni tartibga solishning maqsadi va mavjud echimini tahlil qilish orqali normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan (vujudga kelgan) ijobiy va salbiy oqibatlarni aniqlash;

Ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihasida va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida korruptsiya, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishi uchun sharoit yaratadigan, tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma‘muriy hamda boshqa cheklovlarni joriy etadigan yoki joriy etishga sharoit yaratadigan qoidalarni aniqlash;

Tadbirkorlik subyektlarida asossiz xarajatlar paydo bo‘lishiga olib keluvchi qoidalarni aniqlash

Portalda davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik faoliyatiga aloqador qonun hujjatlarining loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar

joylashtirilib, ro'yhatdan o'tgan barcha foydalanuvchilar mazkur hujjalar borasida o'z takliflarini berish imkoniyati yaratilgan. Keltirilgan takliflar qonun hujjati loyihasi va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni joylashtirgan davlat organ tomonidan o'rganib chiqilib qabul qilinadi yoki asoslantirilgan rad javob beriladi.

Foydalanuvchilar joylashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlar borasida nafaqat moddama-modda o'z takliflarini bildirishlari balki, mazkur hujjatlar borasida o'z fikr-mulohazalarini bildirib mahsus so'rovnomanini to'ldirishlari ham mumkin. So'rovnoma Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimini va mazkur Portalni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Elektron hukumat tizimini rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda bir qator muhim huquqiy asoslar ishlab chiqilgan. Jumladan, quyidagi qonun va qarorlar tizimning shakllanishi va faoliyat yuritishida muhim o'rin tutadi:

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik

Elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining elektron hukumat to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

10-modda. Elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish prinsipi

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish chog'ida, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilish jarayonida elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalaniladi.

Axborotni elektron hukumatning markaziy ma'lumotlar bazalarida, shuningdek elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlarining axborot tizimlarida va axborot resurslarida saqlash hamda unga ishlov berish elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Elektron hukumatning yagona identifikatorlari ro'yxati, uni shakllantirish, yuritish va undan foydalanish tartibi, shuningdek ariza beruvchining o'zi taqdim etgan identifikatorga muvofiqligini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

25-modda. Elektron hukumat infratuzilmasi

Elektron hukumat infratuzilmasi:

markaziy ma'lumotlar bazalaridan;

idoralararo elektron hamkorlik qilish tizimidan;

davlat organlarining axborot tizimlari va axborot resurslari hamda ularning majmualaridan;

davlat organlarining rasmiy veb-saytlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan;

Ma'lumotlarga ishlov berish markazi va idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'idan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni. – Qabul qilingan sana: 2016-yil 9-dekabr. – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 30-dekabrda "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rasmiy sayti – www.mtc.uz
4. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini – www.my.gov.uz
5. Ochiq ma'lumotlar portalini – www.data.gov.uz
6. Bekmurodov S., Tadjibayeva M. Axborot texnologiyalari va jamiyat. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
7. Karimov F. Elektron hukumat: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
8. Ziyayeva Z. Raqamli boshqaruv tizimlari va ularning huquqiy asoslari. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2021.
9. G'afurov S. O'zbekiston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish yo'nalishlari. – Toshkent: Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2022.